

# Chery yangi Pro Family seriyasi bilan O'zbekistonga kirib kelmoqda

TASHKENT, UZBEKISTAN, November 23,

2021 /EINPresswire.com/ -- Chery

Group yaqinda o'zining eksport

ma'lumotlarini e'lon qildi. Unga ko'ra

oktabr oyida 25 049 dona avtomobil

eksport qilingan bo'lib, bu o'tgan

yilning shu davriga nisbatan 92,7% ga

ko'p ko'rsatgich. Joriy yilda oylik

eksport miqdori olti barobar, ya'ni 20

000 dan ortiq qayd etildi. Bundan

tashqari, Chery dastlabki 10 oy ichida


rekord darajadagi eksport miqdoriga

erishdi, bu ko'rsatgich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 145,7% ga ko'p bo'lib, 212 959

donani tashkil etdi. Buning natijasida Chery Xitoyning yengil avtomobil eksportchilari orasida

yetakchilikni qo'lga kiritdi. Rasmiy manba tomonidan berilgan ma'lumotga ko'ra, Chery

O'zbekistonga yangi Pro Family seriyasi bilan kirib kelmoqda.



Chery kompaniyasining Pro Family seriyasi savdosi Rossiya, Braziliya va Chili kabi mamlakatlarda

yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular bozorda kuchli sifat ko'rsatkichlari va yuqori quvvat

ko'rsatkichlariga ega degan ishonchga erishdilar. Rossiyada Tiggo 7 Pro oktabr oyida eng

mashhur Xitoy yo'l tanlamasiga aylangan bo'lsa, Chilida Chery oktabr oyida yo'l tanlamaslar

segmentida 15,3% ulushga ega chiqdi hamda ketma-ket 10 oy davomida birinchi o'rinni egalladi,

Tiggo 2 esa eng ko'p sotilgan avtomobil maqomiga erishdi; Braziliyada Chery Tiggo 8 va Tiggo 2

Pro kabi modellarining savdosida keskin o'sishga erishdi.

Chery kompaniyasining Pro Family seriyasida Cheryning eng zamonaviy texnologiyalari va o'ziga

xos PRO funksiyalari mujassam etilgan. PRO seriyasining zamonaviy dizayni va yorqin, yulduzli

old panellari ko'rinishi uning ajralib turishi va ta'sirchanligini ta'minlaydi; interyeri yuqori

texnologiyali salondan tashkil topgan; u UHD konsoli, masofadan ishga tushirish va 360 darajali

panorama ko'rish qurilmasi kabi PRO seriyasining aqlli konfiguratsiyalari bilan juda ajoyib

ko'rinishga ega bo'lib, iste'molchilarga kutilganidan ham ortiq aqlli boshqarish tajribasini taklif

etadi; bundan tashqari, u PRO seriyasining cheksiz kuchiga ega: Chery Xitoyning "Eng yaxshi

o'rta motor" ro'yxatiga kiritilgan 6 ta dvigatelga ega bo'lib, ularning barchasi kuchli va yoqilg'i

sarfi bo'yicha yanada tejamkor hisoblanadi.

Bugungi kunda Chery dunyo boʻylab 9,8 million isteʼmolchiga ega, shu jumladan 1,9 million nafari chet ellik isteʼmolchilar hisoblanadi. Ketma-ket 18 yil davomida Xitoyning eng yirik yengil avtomobil eksportchisi sifatida Chery oʻzining yangi Pro Family seriyasi bilan Oʻzbekistonga bozoriga kirish orqali mahalliy isteʼmolchilarga yangi Pro avtoulavlarini boshqarish imkonini taqdim etmoqchi.

Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzatib boring:

FB: Chery Uzbekistan <https://www.facebook.com/Chery-Uzbekistan-100948345301949/>

INS [cheryuzbekistan](https://www.instagram.com/cheryuzbekistan/) (📷)

<https://www.instagram.com/cheryuzbekistan/>

Media Relations

Chery Group

[email us here](#)

---

This press release can be viewed online at: <https://www.einpresswire.com/article/556995861>

EIN Presswire's priority is source transparency. We do not allow opaque clients, and our editors try to be careful about weeding out false and misleading content. As a user, if you see something we have missed, please do bring it to our attention. Your help is welcome. EIN Presswire, Everyone's Internet News Presswire™, tries to define some of the boundaries that are reasonable in today's world. Please see our Editorial Guidelines for more information.

© 1995-2021 IPD Group, Inc. All Right Reserved.